



## 7 OYDA TURK TILIDAN C1 OLIHNING ENG SAMARALI USULLARI

**Mirzaliyeva Sevinch Ahror qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili 3- fakultet talabasi*

**Bazarov Ixtiyor Raxmatullayevich**

*Ilmiy rahbar: O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turk tilini o'rganishni nimadan boshlash, kundalik o'qish soatlarini rejalashtirish, qaysi kitoblardan foydalanish, o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kōnikmalarini rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan. Imtihan uchun tayyorgarlik va natijaga erishishda motivatsiyani saqlash haqida ham qayd etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *grammatika, darslik, onlayn platformalar, Duolingo, so'z boyligi, motivatsiya, "Okuma, yazma, dinleme, konuřma" ko'nikmalari, lug'at.*

Turk tili turkiy tillar sirasiga kirib, o'zining jozibadorligi, nafis ohangi va soddaligi bilan qalblardan joy egallaydi. Turk tili, asosan, Turkiya, O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharqda keng foydalaniladi. Millionlab insonlar ushbu tilda ona tili sifatida so'zlashsa, yana ko'plab insonlar turk tilini ikkinchi til sifatida o'rganishadi. Turk tili shunchaki aloqa vositasi bo'libgina qolmay, butun bir madaniyat, jamiyatning ruhi va orzulari yashaydigan go'zal bir olam ham sanaladi. Hozirgi kunda bir qancha mamlakatlarda turk tilini o'rganish va unga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Bu esa ko'pchilikni ma'lum bir sohada yutuqlarga erishishiga sabab bo'ladi. Eng muhimi, turk tilini o'rganish barchaga dumyoning yangi qismini ochadi va keng imkoniyatlar yaratadi.

Xususan, bir necha yillardan beri yurtimizda turk tilini o'rganish kengaymoqda. Qolaversa, turk tilini o'zlashtirishda ham CEFR (Common European Framework of Reference for languages) mezonlari yo'lga qo'yildi. Bilamizki, Cefr 6 ta asosiy darajani o'z ichiga oladi. Turk tilini A1 darajasi oddiy so'zlar, iboralar, soddaga gaplarda o'zini tanishtirish, yashash joyi haqida so'zlashish imkoniyatini bersa, A2 darajasi har kungi ehtiyojlarga doir oddiy muloqot qilish va ularni anglash, ma'lum bir boshlang'ich darajadagi narsalarni so'rash imkonini beradi. B1, ya'ni o'rta daraja sayohat, o'qish yoki ishga oid oddiy suhbatlarni olib borishda qo'l keladi. Shuningdek, B2 daraja barcha kerakli grammatik qoidalarni bilish, ilmiy ma'lumotlarni tushunish, murakkab vazifalarni muhokama qilishni ta'minlaydi. C1 - Yuqori darajadagi o'rganuvchilar kasbiy, akademik muhitda bemalol muloqot qilishadi. C2 daraja esa turk tilida erkin, deyarli o'z ona tilidek gapirish, yozish imkoniyatini aks ettiradi.

Turk tilidan 7oyda C1 darajasiga erishish uchun qattiq mehnat qilish kerak. Birinchi navbatda aniq maqsadi qo'yish, motivatsiyani yo'qotmaslik, tartib VA intizomni saqlash talab etiladi. Bir yutuqqa erishish uchun ma'lum bir narsalardan voz kechish kerak: dangasalik, vaqtni behuda sarflash, ortiqcha narsalarga chalg'ish va boshqalar.



Avvalambor, o'qish soatlarini rejalashtirish , malakali ustoz tanlash kerak ,chunki boshlang'ich bilimlarni ustozdan o'rgangan yaxshiroq.Har kun 4-5 soat turk tili bilan shug'ullanish darkor. "Yeni Istanbul" , "Yedi iklim Türkçe" , "Istanbul yabancılar için Türkçe ders kitabı " kabi grammatik kitoblar , lug'atlar bunda yordam beradi. Qolaversa, onlayn platformalar : Duolingo , Busuu, Memrise, Ibrat academy ham turk tili va boshqa xorijiy tillarni o'rganish uchun qulay. Har kuni 20-25 ta yangi so'z yodlash, o'rgangan yangi so'zlarni doimiy tarzda takrorlash, ular yordamida gap tuzish va uni hayotda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tinglab tushunish (Dinleme)ni oshirish uchun podkast, audio kitoblar,audio darslar yordamga keladi.Buni ustiga turkcha film, kinolarni subtitr bilan tomosha qilish hamma kōnikmalarni rivojlantiradi: „Ayla", "Mucize"... Őqish (Okuma)va yozish kōnikmasini ( Yazma) ni oshirish uchun turkcha artikl ũqish va undagi yangi sōzlarni yodlash, esse, insho yozish lozim. Gapirish (Konuşma) kōnikmasini yuksaltirishning eng yaxshi yo'li bu turk tilida ravon gapiradigan inson bilan har kuni muloqot qilish yoki "Tandem", "HelloTalk" nomli ilovalardan foydalanishdir.

**Xulosa:** shuki, C1 darajaga erishish uchun ũrganuvchida kuchli istak va ma'suliyat bōlishi ũz ustida tinimsiz shug'ullanishi kerak. Yutuqlarga erishishda albatta qiyinchiliklar bōladi, lekin sabr va doimiy harakat qilib bu yōlni bosib ũtish kerak. Qolaversa , hozirgi paytda kōplab imkoniyatlar bor, muhimi ulardan unumli foydalanishimiz kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wikipedia<https://uz.wikipedia.org>Turk tili
2. <https://www.50languages.com/turk-tilini-bepul-o%E2%80%99rganing>
1. 3.Wikipedia<https://uz.wikipedia.org>Turk alifbosi